

## BOSHLANG‘ICH SINFLAR ONA TILI VA O‘QISH DARSLARINING INTEGRATSIYASINI TA‘MINLASHDA O‘QITUVCHI KOMPETENTLIGI

**Xurramova Madina Abdunazar qizi**

TerDPI, Boshlang‘ich ta‘lim nazariyasi fakulteti talabasi

**Musurmonqulov Adham Abdurashid o‘g‘li**

TerDPI, Boshlang‘ich ta‘lim nazariyasi kafedrası o‘qituvchisi

***ANNOTATSIYA.** Mazkur maqolada boshlang‘ich sinflarda o‘tiladigan ona tili va o‘qish savodxonligi fanining ahamiyati va darslarning integratsiyasini ta‘minlashda o‘qituvchi kompetentligi haqida so‘z yuritiladi. Ta‘lim integratsiyasi hozirgi zamon talabiga javob beradimi, uni qanday tashkil etish kerak kabi savollar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda, shular asosida so‘z yuritiladi.*

***Ka‘lit so‘zlari:** ta‘lim tizimi, ta‘lim poydevori, ona tili, o‘qish savodxonligi, fan, boshlang‘ich sinf, ahamiyat, savodxonlik, dars samaradorligi, ijodkorlik, ko‘nikma, ta‘lim, yaratuvchanlik, tafakkur, fikrlash, erkinlik.*

**KIRISH.** So‘nggi yillarda ta‘lim-tarbiya tizimida yangi avlod tarbiyasida jahon fani va madaniyatini ilg‘or yutuqlarini jamlagan, o‘tmish ajdodlarimiz aql-zakovoti mahsuli sifatida yaratilgan milliy va ma‘naviy qadriyatlarimizga tayangan holda zamonaviy ta‘lim-tarbiya berish uslublarini shakllantirish muammosi vujudga keldi. Barkamol avlod jamiyat taraqqiyotining asosi. Shu bois mamlakatimizda ham jismonan, ham ma‘nan barkamol avlodga ta‘lim-tarbiya berish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. Ona tili va o‘qish savodxonligi fanini o‘qitishda asosiy e‘tibor o‘quvchida tilga doir to‘rt ko‘nikma: o‘qib tushunish, tinglab tushunish, nutq so‘zlar va yozish xamda grammatik savodxonlikni shakllantirishga qaratiladi.

"Ta‘lim to‘g‘risida"gi Qonun, "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi", "O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida"gi Qonun hamda "Maktab ta‘limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi", "2008-2012 yillarda uzluksiz ta‘lim tizimi mazmunini modernizatsiyalash va ta‘lim-tarbiya samaradorligini yangi sifat darajasiga ko‘tarish Davlat dasturi", 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Harakatlar strategiyasida va boshqa me‘yoriy hujjatlarda uzluksiz ta‘lim tizimini isloh qilish vazifalari belgilangan bo‘lib, bu esa ta‘lim jarayonida o‘quvchilar bilan ishlash, ularni barkamol avlod sifatida

shakllantirish davlat miqyosida muvaffaqiyatli amalga oshirilishida zamin bo‘lmoqda. Ta’limni integratsiyalashtirishdan ko‘zlangan asosiy maqsad boshlang‘ich maktabdayoq tabiat va jamiyat haqidagi tasavvurni yaxshi shakllantirish va ularning rivojlanishi qonunlariga o‘z munosabatini bildirishga yo‘naltirishdan iboratdir. Shuning uchun ham kichik maktab o‘quvchisi predmet yoki voqea-hodisalarni bir necha tomondan ko‘rishi muhimdir. Asosiy fanlarni o‘zlashtirish va olamdagi bor narsalar qonuniyatlarini tushunishda predmetlar ichidagi va predmetlararo aloqalarini o‘rgatish ta’limni integratsiyalashga yondashuvning metodik asosidir. Bunga turli darslar tushunchalariga ko‘p marta qaytish, ularni chuqurlashtirish va boyitish, shu yoshga tushunarli bo‘lgan muhim belgilarni aniqlash orqali erishish mumkin. Shunday qilib, yaxshi shakllangan, tuzish va o‘tkazish tartibiga ega bo‘lgan, tarkibiga shu o‘quv predmetiga tegishli bo‘lgan tushunchalar guruhi kiritilgan har qanday dars integratsiyaga asos qilib olinishi mumkin. O‘qish savodxonligi - jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma tilning shakllarini idrok etish va amaliyotda qo‘llay olish qobiliyatidir. Asosiy e’tibor, tushunishni namoyon qilishdan o‘zlashtirilgan ma’lumotlarni qanday qilib yangi loyihalar va vaziyatlarda qo‘llay olish qobiliyatlarini namoyon qilishga qaratilmoqda. Boshlang‘ich sinf darslarida o‘quvchini qalban yuksak, ma’naviy boy qilib tarbiyalashda ajdodlarimiz yaratgan betakror asar durdonalaridan foydalangan holda bilim berish hamda odob-axloq qoidalariga o‘rgatish muhim ahamiyatga ega. Boshlang‘ich sinflarda ona tili va o‘qish darsi alohida ajralib turadi. Ona tili va o‘qish darslari orqali o‘quvchining savodi chiqadi. U yozishni va o‘qishni o‘rganadi. Bu o‘quvchilarga keyinchalik ham boshqa fanlarni yaxshi o‘zlashtirishiga yordam beradi. Bunda asosiy rol ni albatta boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi egallaydi. Chunki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining savodini chiqarish o‘qituvchidan kasbiy mahorat va bilim talab etadi. Bu vazifa o‘qituvchining zimmasiga ulkan mas’uliyat yuklaydi. O‘qituvchi har doim ushbu mas’uliyatni his qilgan holda dars jarayonini tashkil etishi lozim.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida fikrlash qobiliyatining har xil turlarini shakllantirish integratsiyaning negizi hisoblanadi. Asosiy fanlarni o‘zlashtirish va olamdagi bor narsalar qonuniyatlarini tushunishda predmetlar ichidag va predmetlararo aloqalarini o‘rnatish ta’limni integratsiyalashga yondashuvning metodik asosidir. Bunda turli darslar tushunchalariga ko‘p marta qaytish, ularni chuqurlashtirish va boyitish, shu yoshga tushunarli bo‘lgan muhim belgilarni aniqlash orqali erishish mumkin. Zero, mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "Biz ta’lim va tarbiya tizimining barcha bo‘g‘inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillash -

tirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz" degan fikri muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim amaliyoti ko'rsatishicha, maktab ta'limida fanlararo aloqadorlikni yo'lga qo'yish fan va jamiyat hayotida bugungi kunda sodir bo'layotgan integratsion jarayonlarning yorqin ifodasidir. Ushbu aloqadorlik o'quvchilarning bilimlarni ongli o'zlashtirishi, dunyo haqidagi yaxlit tasavvurlarini rivojlantirish va amaliy va ilmiy-metodik tayyorgarligini oshirishda muhim o'rinni egallaydi. Bunday tayyorgarlik umumiy o'rta ta'lim bitiruvchilarini darsda va darsdan tashqari mashg'ulotlarda, ishlab chiqarishda va umuman har qanday faoliyatda o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini erkin qo'llash imkoniyatini beradi.<sup>1</sup> O'quvchilar o'quv materiallarini o'zlashtirishida sodir bo'layotgan bunday pasayishlar yosh avlodning intellektual rivojlanishiga ta'sir etmay qolmaydi. Bu holat esa o'qituvchilardan o'quvchilarga bir fan doirasida bog'liqliklar asosida turli hodisalarni o'rganishni taqozo etadi. Tabiat hodisalarini, ularning tuzilishi, mohiyati va funksiyalarini, qonuniyatlarini o'rganish o'quvchilar tafakkurida qiyoslash, analiz va sintez, abstraktsiyalash, umumlashtirish, induktiv va deduktiv xulosa chiqarish kabi tafakkur operatsiyalarini rivojlantirishga yordam beradi. <sup>2</sup>Bugungi kunda integratsiyaga asoslangan darslarni tashkil etishda bir qator ta'lim metodlaridan unumli foydalanilmoqda. Shulardan biri "Insert" usulidir. Buni quyidagi usulda tashkil etish mumkin: Ma'ruza matnini o'qib, matnning chetiga quyidagi belgilarni qo'yib chiqing:

V - bilaman

+ - men uchun yangi ma'lumot

- - men bilgan ma'lumotni inkor qiladi

? - noaniq (aniqlashtirish talab qiladigan) qo'shimcha ma'lumot.

2. Olingan natijalarni jadval shaklida rasmiylashtiring.

An'anaviy darslarni ko'z oldimizga keltirsak, o'qituvchi mavzuni chiroyli tushuntiradi, savol javob mavzu doirasida uyushtiriladi. Keyingi darsda o'quvchilar o'qituvchi kabi gapirishga harakat qiladi, kitobdan mavzuni qayta qayta o'qiydi biyron aytib beradi. Berilgan savollar ham asosan shu o'tilgan mavzu doirasida bo'ladi. Jurnallar "besh" bilan to'lib boradi. Oradan bir oz vaqt o'tib mavzu so'ralganda o'quvchi aytishga qiynalib qoladi. Yuzaki yodlashning natijasi shunday mavhum holatlarga olib keladi. Masalan, 45 minutlik darsning yarmidan ko'p vaqtini darslikdagi matnlarni ko'chirtirish bilan o'tkazgan o'qituvchilar ham yo'q emas. Bugungi darslar o'quvchini mustaqil fikrlashga bahs munozaraga, o'zini-o'zi tahlil eta olishga, egallagan bilimlarini amalyotga qo'llay olish. Bola tafakkurini rivojlantirishga

1

2

xizmat qilishi kerak. Integratsiyalashgan darslarni tashkil etishda yana FSMU texnologiyasidan foydalanish ham yaxshi samara beradi. Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda xamda o'quv jarayonini baxs-munozarali o'tkazishda qo'llaniladi, chunki bu texnologiya talabalarni o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq xolda baxslashishga xamda shu bilan birga baxslashish madaniyatini o'rgatadi. Tinglovchilarga tarqatilgan oddiy qog'ozga o'z fikrlarini aniq va qisqa xolatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi. Biroq, integratsiyalangan darsga boshqa fanlar, boshqa o'quv predmetlari bilan bog'liq tushunchalar tahlil qilinishining natijalari kiritiladi. Masalan, "qish", "sovuq", "bo'ron", kabi tushunchalar o'qish, rus tili, tabiatshunoslik, musiqa, tasviriy san'at darslarida ko'rib chiqiladi. Tushunchalarning tahlil qilinishi boshqa o'quv darslarida o'zlashtirilgan bilimlarga murojaat qilinadigan darslar integratsiyalangan hisoblanadi. Dars ijodiy, erkin bo'lishi bilan birga, yaxlit, mantiqan ketma-ket, o'ziga xos o'tish metodologiyasiga ega bo'ladi. Umumiy ta'limning poydevorini qo'yadigan boshlang'ich maktabdagi ko'p tushunchalar tabiatshunoslik, rus tili, musiqa, tasviriy san'at va boshqalar uchun umumiydir.<sup>1</sup> Hozirgi kunda bir qator o'quv predmetlari uchun umumiy bo'lgan tushunchalar orasidagi aloqalarni o'rnatish psixologik va metodik asos bo'lgan integratsiyalangan darslar tizimini ishlab chiqish va sinovdan o'lkazish lozim. Shu bilan birga predmetlararo aloqalar dars tarkibi darajasida o'rgatilishi va zarur o'qitish vositalari bilan ta'minlanishi kerak.

Integratsiyalashgan darslar - interaktiv ta'lim tizimi bo'lib, integrativ bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish asosida ko'rgazmali mahoratni vujudga keltirish sirlarini o'rganadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida fikrlash qobiliyatining har xil turlarini shakllantirish integratsiyaning negizi hisoblanadi. Bugungi kunda fan rivoji va ishlab chiqarishdagi ulkan o'zgarishlar tufayli kelib chiqayotgan talablar maktab ta'limi oldiga yangi vazifalarni qo'yimoqda. Buni muhtaram prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning ta'lim to'g'risida qabul qilayotgan qaror va farmonlarida ham ko'rib turibmiz. 2017-yil 7-fevralda qabul qilingan.

## **NATIJA VA MUHOKAMALAR.**

"Integratsiya" tushunchasi XVIII asrdayoq Spenser tomonidan izohlangan edi. Biz ham integratsiyani tafakkur o'stirish omili sifatida qarab, uni fanlararo aloqa hamda ta'lim shakllarini sintezlash tarzida talqin etishga harakat qildik. Integratsiya – "butun" degan ma'noni bildiradi, demak, bu tafakkur o'sishi jarayonining turli qism va elementlarini bitta butunga birlashtirish bo'lib hisoblanadi. Ona tili ta'limiga integrativ

---

1

yondashuv uning sifatini yanada oshirishga xizmat qiladi. Fanlararo aloqadorlik nazariyasining taraqqiyotida tabaqalashtirilgan holat hukm sursa ham amaliyotda integratsiya, o'zaro aloqadorlik fanning ijtimoiy ahamiyatini yanada oshiradi. So'nggi yillarda amalga oshirilayotgan fanlararo aloqadorlik muammolarini hal etishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar ijtimoiy hayot talabidir. Boshlang'ich maktabda integratsiyani amalga oshiruvchi bo'g'in vazifasini o'qituvchining o'zi amalga oshiradi. U bolalarning matematikaga, yozishga, tabiat ko'pgina boshlang'ich tushunchalarga va yana ko'pgina narsalarga o'rgatadi. O'z kuch va imkoniyatlari darajasida bu ishni amalga oshiradi. Boshlang'ich sinflarda bir o'qituvchining dars berishini, integratsiyaning bir usuli deb hisoblasak ham bo'ladi. Integratsiyani amalga oshirishning usullari yaxshi yoki yomon bo'lishi mumkin, muammoning mohiyati shundaki, usullarning birlaridan yuz o'girib, ikkinchisidan barcha darajalarida o'qituvchilarning (psixologik va fiziologik) yosh xususiyatlarini hisobga oladigan integratsion choralar tuzishni kiritishidir. Muammoning bunday qo'yilishi integratsiyaning turli ta'lim pog'onalarida turli xususiyatlarga ega ekanligini ko'rsatadi. Boshlang'ich maktabda integratsiyani bir-biriga nisbatan yaqin fanlarni birlashtirish asosida ko'rish maqsadga muvofiq. Ta'limning keyingi pog'onalaridan u asosiy fanlarning chegaralarini birlashtirishga harakat qiladi. O'quv fanlararo aloqadorlik ta'minlangan sharoitda o'quvchilarning egallagan bilimlari samarali rivojlanishi bilan bir qatorda ularning idrok qilish qobiliyati, faolliklari, iziqishlari, aqliy intellektual imkoniyatlari ortishiga erishiladi. Ta'limni integratsiyalashning asosiy maqsadi boshlang'ich maktabdayoq tabiat va jamiyat haqidagi yaxshi tasavvur asoslarini qo'yishi va ularning rivojlanishi qonunlariga o'z munosabatlarini shakllantirishdir. Davrimizning hayotiy ehtiyojlari maktablarda ta'lim-tarbiya ishlari darajasini yuqori bosqichga ko'tarishni, har tomonlama puxta bilim olgan, fan va texnika asoslari bilan qurollangan kelajak avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishni talab qiladi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "Bizning vazifamiz – to'plangan tajriba va ilg'or xalqaro amaliyotga suyangan holda, o'zimizning taraqqiyot va yangilanish modelimizni qat'iy amalga oshirishdan iborat. Shu borada yaqin va o'rta muddatga belgilangan marralarga erishish uchun qat'iyat bilan harakat qilishimiz zarur" deb ta'kidlaganlari bejiz emas. Negaki, taraqqiyotga erishishda mamlakat ijtimoiy tizmining barcha sohalari faol bo'lmoqligi shart.

**XULOSA.** Xulosa qilib aytadigan bo'lsa umumiy ta'limning poydevorining qo'yadigan boshlang'ich maktabdagi ko'p tushunchalar tabiatshunoslik, rus tili, musiqa, tasviriy san'at va boshqalar uchun umumiydir. Xulosa o'rnida yana shuni aytish lozimki, har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisi ona tili va o'qish savodxonligi

fanining ahamiyatini chuqur anglagan holda o'quvchilarga zarur bilimlarni va ko'nikmalarni bera olishi zarur. Shundagina o'quvchilar kelgusida og'zaki va yozma savodxonligi yuqori shaxslar bo'lib yetishadi deb o'ylayman. Hozirgi kunda bir qator predmetlari uchun umumiy bo'lgan tushunchalar orasidagi aloqalarni o'rnatish psixologik va metodik asosiy bo'lgan integratsiyalangan darslar tizimini ishlab chiqish va sinovdan o'tkazish lozim.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi" 2017.02.07.
2. R.Mavlyanova, N.Raxmankulova. "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi, Toshkent "Voris nashriyot", 2013.
3. "O'qish madaniyatini oshirish" ilmiy-amaliy seminari materiallari. 2018
4. Ona tili va o'qish savodxonligi. 1-qism [Matn]: darslik 2-sinf uchun /K. Mavlonova [va boshq.]. -Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021.
5. R.A.Mavlonova, N.H.Rahmonqulova. "Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi", Toshkent "Ilm ziyo", 2009.
6. T.G'afforova, E.Shodmonov, G.Eshturdiyeva. 1-sinf "O'qish kitobi", "Sharq" Nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, Toshkent-2018.
7. T.G'afforova, E.Shodmonov, X.G'ulomova. 1-sinf "Ona tili", "Sharq" Nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, Toshkent-2018.